



**AHOLI O'RTASIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINI ANIQLASH VA UNI
BAHOLASH MEXANIZMLARINI BELGILOVCHI METODOLOGIK ASOSLAR**

Janabayeva Gulbahor Ashirovna

gulbakhorjanabaeva@gmail.com

Oriental universiteti Moliya va menejment kafedrasida stajyor o'qituvchisi

Aholining kambag'allik darajasini aniqlash va baholash masalasi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar doirasida dolzarb ilmiy va amaliy muammo sifatida e'tirof etiladi. "Kambag'allik - bu faqat iqtisodiy resurslar tanqisligi emas, balki insonning asosiy ehtiyojlarini qondira olmasligi, ijtimoiy institutlardan foydalana olmasligi, jamiyatda to'laqonli ishtirok etish imkoniyatlarining cheklanganligidir. Shu bois, kambag'allikni o'lchash va tahlil qilishda zamonaviy fan nafaqat monetar, balki multidimensial (ko'p o'lchovli) yondashuvlarni ishlab chiqmoqda"²⁶.

Ilmiy-nazariy manbalar tahliliga ko'ra, kambag'allik holatini baholashda ikkita asosiy konseptual yondashuv mavjud: absolyut va nisbiy yondashuvlar.

"Absolyut yondashuvda kambag'allik darajasi minimal iste'mol savatchasiga asoslangan holda aniqlanadi. Bu metodologiya aholining eng zarur hayotiy ehtiyojlarini (ovqat, kiyim, turar joy, energiya va sog'liqni saqlash xizmatlari) qamrab oluvchi eng kam darajadagi iste'mol miqdorini hisoblashga asoslanadi.

Nisbiy yondashuv esa aholining turmush darajasini jamiyatdagi o'rtacha daromad yoki farovonlik bilan taqqoslashga asoslanadi. U, odatda, kambag'allik chegarasini o'rtacha daromadning ma'lum bir foiziga (masalan, 50–60%) nisbatan aniqlaydi"²⁷. Amaliy jihatdan esa kambag'allik darajasini aniqlashda uch asosiy statistik ko'rsatkich keng qo'llaniladi:

Headcount Index (H) - kambag'allik chegarasidan past daromadga ega aholi ulushini aniqlaydi.

Poverty Gap Index (PG) - kambag'allarning daromadi kambag'allik chegarasidan o'rtacha qanchaga past ekanligini ko'rsatadi.

Squared Poverty Gap Index (SPG) - kambag'allikning intensivligini, ya'ni kambag'allar orasidagi tengsizlik darajasini o'lchaydi. Kambag'allikni chuqurroq va kompleks baholashda multidimensial kambag'allik indeksi (MPI ko'p o'lchovli kambag'allik indeks) joriy etilgan bo'lib, u ta'lim, sog'liqni saqlash va yashash sharoitlari kabi ko'rsatkichlarni qamrab oladi. Bu indeksning afzalligi shundaki, u faqat daromadlar bilan cheklanib qolmay, balki kambag'allikning ijtimoiy-psixologik va institutsional jihatlarini ham tahlil qilish imkonini beradi.

²⁶ Alkire, S., & Foster, J. (2011). Counting and multidimensional poverty measurement. *Journal of Public Economics*, 95(7–8), 476–487.

²⁷ World Bank. (2018). *Poverty and Shared Prosperity 2018: Piecing Together the Poverty Puzzle*. Washington, DC: World Bank Group.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



“Kambag‘allikni o‘lchashda eng asosiy va metodologik jihatdan ahamiyatli ko‘rsatkichlardan biri bu - kambag‘allik chegarasi (poverty line)dir. Ushbu indikator shaxs yoki uy xo‘jaligining daromadi asosida ularning iqtisodiy holatini baholash va kambag‘al bo‘lgan qatlamni aniqlash imkonini beradi. Kambag‘allik chegarasi deb, odatda, shaxsning yoki xonadonning foydalanish mumkin bo‘lgan daromadlari (disponibel daromad), yalpi daromadlari yoki umumiy iste‘mol darajasi ma‘lum bir normativ minimumdan past bo‘lsa, bu holat kambag‘allik deb tan olinadi”²⁸. Ushbu metodologik yondashuv insonlarning faqat monetar emas, balki ehtiyojlarini ham inobatga olgan holda ularni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan baholash imkonini yaratadi.

Kambag‘allik darajasi - bu ko‘rsatkich aholining kambag‘allikka duchor bo‘lgan qismini foizda ifodalash orqali ularning umumiy soniga nisbatan ulushini aniqlaydi. Asosan, ushbu yondashuvda oilaviy yoki xonadon daromadi asos qilib olinadi va agar bu daromad belgilangan kambag‘allik chegarasidan past bo‘lsa, bu xonadon kambag‘al deb tan olinadi. Kambag‘allik darajasi minimal iste‘mol savatini sotib olish imkoniyatiga ega bo‘lmagan aholining foizi sifatida ifodalanadi.


Kambag‘allik chuqurligi - bu kambag‘allik ko‘rsatkichlarining eng muhim elementlaridan biridir. U kambag‘allik chegarasi bilan aholi ehtiyoj darajasi (iste‘mol, xarajat yoki daromad) o‘rtasidagi farqni aniqlaydi. Boshqacha aytganda, bu ko‘rsatkich kambag‘al qatlamning o‘rtacha iste‘mol yoki daromadi kambag‘allik chegarasidan qanchaga kam ekanligini ko‘rsatadi. Shuning uchun u “daromad defitsiti” yoki “iste‘mol defitsiti” deb ham yuritiladi.

Kambag‘allik keskinligi. Ushbu ko‘rsatkich - kambag‘allikni baholashda qo‘llaniladigan eng soddalashtirilgan, ammo sezgir indikatorlardan biri bo‘lib, u kambag‘allik chuqurligini baholashda qo‘llaniladi, lekin bu yerdagi farq shundaki: kambag‘allik darajasi kvadratlashtiriladi, ya‘ni daromad defitsiti ko‘rsatkichi o‘z-o‘ziga ko‘paytiriladi. Bu esa past daromadli xonadonlar holatini kuchliroq baholash imkonini beradi.

Ushbu yondashuv yordamida eng og‘ir ahvoldagi kambag‘al qatlamlar aniqlanadi va kambag‘allik muammosining jiddiylik darajasi chuqurroq tushuniladi. Kambag‘allik keskinligi - bu nafaqat kambag‘allik miqyosi, balki eng og‘ir ko‘rinishdagi muammoli qatlamlar ustuvorligini aniqlash imkonini beradigan metrikadir. Shu sababli, ijtimoiy siyosatda bu ko‘rsatkich eng muhtoj guruhlarni aniqlash va ularni qo‘llab - quvvatlash strategiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq, ko‘plab mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bu yondashuvning ta‘siri vaqtinchalik bo‘lib, uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka olib kelmaydi. Kambag‘allikka qarshi samarali kurash faqat daromadlar qayta taqsimoti emas, balki ta‘lim, sog‘liqni saqlash, bandlik va infratuzilma imkoniyatlariga teng kirishni ta‘minlovchi tizimlar orqali amalga oshiriladi.

²⁸Овчарова, Л. Н., Бирюкова, С. С., Попова, Д. О., & Варданян, Е. Г. (2014). Уровень и профиль бедности в России: от 1990-х годов до наших дней.



1 - rasm. Kambag'allikni baholashda qo'llaniladigan indikatorlar va mezonlar tizimi²⁹

Taqdim etilgan rasmda asosida aholining kambag'allik darajasini aniqlash va baholash bo'yicha tizimli yondashuv shakllantirilgan. Shu qatorda ikki asosiy yo'nalishni ajratadi: kambag'allikni o'lchash usullari va kambag'allik darajasini belgilovchi mezonlar.

Kambag'allikni o'lchashda qo'llaniladigan yondashuvlar - daromad yetishmovchiligi, ko'p o'lchovli indikatorlar va o'zini o'zi baholash metodi - mavjud holatni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Hamda, ko'p o'lchovli metod kambag'allikni nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ma'naviy jihatlari bilan ham ochib beradi.

Ikkinchi yo'nalishida "kambag'allik chizig'i" asosida aholining farovonlik darajasi - kambag'allik, o'rtacha va yuqori daromadli qatlamlarga ajratilgan. Bu taqsimot kambag'allikni faqat mavjudlik darajasida emas, balki uning chuqurligi va tarkibiy tuzilmasini tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu metodologik yondashuv dissertatsiya uchun asosiy ilmiy tahlil platformasini yaratadi hamda ijtimoiy siyosatni nishonli tarzda shakllantirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar asosida umumlashtirib aytish mumkinki, erishilgan natijalar mavjud muammolarni aniqlash va ularning yechim yo'llarini ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, olingan xulosalar nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki kelgusida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish, barqaror rivojlanishni ta'minlash hamda amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

²⁹ Muallif ishlanmasi





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Aholi o'rtasida kambag'allik darajasini aniqlash va baholash masalasi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, kambag'allikni o'lchashda absolyut va nisbiy yondashuvlar bilan bir qatorda multidimensional metodologiyalarni qo'llash masalaning yanada chuqurroq tahliliga imkon beradi. Daromad va iste'mol savatchasiga asoslangan klassik indikatorlar (Headcount Index, Poverty Gap Index, Squared Poverty Gap Index) aholining iqtisodiy ahvolini aniq ko'rsatib bersa-da, multidimensional kambag'allik indeksi (MPI) orqali kambag'allikning ta'lim, sog'liqni saqlash va yashash sharoitlari kabi ijtimoiy omillari ham kompleks baholanadi.

Shu bilan birga, kambag'allik chuqurligi va keskinligini hisobga olish eng muhtoj qatlamlarni aniqlash hamda ularni qo'llab-quvvatlash strategiyalarini ishlab chiqishda alohida ahamiyatga ega. Demak, kambag'allikka qarshi kurash faqat daromadlarni qayta taqsimlash orqali emas, balki ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik va infratuzilma imkoniyatlariga keng kirishni ta'minlash orqali samarali bo'ladi. Ushbu metodologik yondashuvlar asosida ishlab chiqiladigan siyosat choralari ijtimoiy tenglikni oshirish, kambag'allik darajasini kamaytirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Alkire, S., & Foster, J. (2011). Counting and multidimensional poverty measurement. *Journal of Public Economics*, 95(7–8), 476–487.
2. World Bank. (2018). *Poverty and Shared Prosperity 2018: Piecing Together the Poverty Puzzle*. Washington, DC: World Bank Group.
3. Овчарова, Л. Н., Бирюкова, С. С., Попова, Д. О., & Варданян, Е. Г. (2014). Уровень и профиль бедности в России: от 1990-х годов до наших дней.
4. Abdullaev, A. A. (2019). Aholi turmush darajasini baholashda kambag'allik mezonlari va ularning iqtisodiy tahlili. *Iqtisodiyot va ta'lim jurnali*, 4(76), 45–52.
5. Xolmo'minov, J. T. (2021). O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishning metodologik yondashuvlari va amaliy mexanizmlari. *O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi*, 3(15), 27–35.

